

**MARKAZIY OSIYODA TAFSIR ILMI O'ZIGA XOS RIVOJLANISH  
XUSUSIYATLARI**

Lapasov Muxammadsodiq Akramjon o'g'li

O'zbekiston xalqaro islam akademiyasi

Islomshunoslik yo'nalishi talabasi

Qur'on oyatlarini tafsir qilish Muhammad (a.s.)davrida vujudga kelib, bu ilm Muhammad (a.s.)dan sahobalarga, sahobalardan tobe'lnlarga meros qoldi. Sahobalar va tobe'lnlar asrida Tafsir og'zaki rivoyat va nakl shaklida bo'lib, ta'lif qilib yozilmagan. Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Mas'ud va boshqa mashhur tafsirchi bo'lganlar. Tafsirdan birinchi kitob yozgan shaxs Abdumalik ibn Jurayjdir (8-asr). Muhammad ibn Jarir Tabariy, Yahyo ibn Salom, Abu Bakr Nisoburiy va boshqa mufassirlar tafsir yozishda shuhrat topdilar. Tafsir qilishning rivojlanishi jarayonida Tafsirning turli uslublari (saxih hadislар va sahobalarning qavllari bilan tafsir qilish; o'z fikri va ijтиҳоди bilan tafsir qilish; oyatning zoxiriylar ma'nosiga qaramay, uning maxfiy ishoralari taqozosi bilan tafsir qilish) paydo bo'ldi. Keyinchalik tafsirning yo'nalishlari ko'payib ketdi. Hozir dunyoda Qur'oni karimga 1700 dan ortiq Tafsir yozilganligi ma'lum.

O'zbekiston hududidan chiqqan Abu Mansur Moturidiy mashhur tafsirchilardan hisoblanadi. U Qur'on oyatlarini ahl assunna valjamoa nuqtai nazaridan tafsir qilgan. Abu Lays Samarqandiy, Zamaxshariy, Faxriddin Roziy, Maxmud Nasafiyalar ham Tafsir yozishda mapghur bo'lganlar. Mustaqillik yillarda mamlakatimizda Qur'oni karimni o'zbek tiliga tarjima va Tafsir qilish imkoniyati tug'ildi. Bu sohada shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, shayx Abdulaziz Mansur, Alouddin Mansur kabi ulamolarni misol qilib keltirish joiz. Abdulaziz Mansur.

Markaziy Osiyoda tafsir va hadis ilmlari ularni devon qilinishiga qadar olimlar va adabiyotshunoslar huzurida Qur'oni karim tafsiri bilan hadis bir narsa edi, ya'ni Muhammad (a.s.) tarafidan Qur'oni karim oyatlariga berilgan izohlarni boshqa hadislар qatorida rivoyat qilinar edi. Shu sababli dastlabki hadislар majmuasi yozilganda Qur'oni karim oyatlarini tafsiri sifatida yozilgan va muhaddis olimlar mufassir deb ham tilga olinar edi. Ilk islam davridayoq, hali tafsir va hadis bir biridan ajralib chiqmasdan bizning diyorimizda ulug' mufassirlar yetishib chiqqan. Markaziy Osiyoda tafsir ilmi o'ziga xos rivojlanish xususiyatiga ega. Bu davrda tafsir ilmi hadis va fiqh ilmi kabi taraqqiy etmagan edi. garchi bu davrda tafsir ilmi bo'yicha kam ma'lumot yetib kelgan bo'lsa-da, tafsir ilmining boshqa o'lkalardagi taraqqiyot bosqichlarini tadqiq etgan holda yurtimiz olimlari tomonidan yaratilgan va hozirgi kunimizgacha yetib kelgan asarlar orqali tasavvur qilish mumkin. Bu borada VIII asrda tobe'iylardan ta'lim olgan Abdulloh ibn Muborak al-Marvaziy tafsir sohasidagi faoliyatini ta'kidlab o'tish o'rinnlidir. U Markaziy Osiyoda o'tgan ilk muhaddis, mufassirlardan edil. U Marvda yashab ijod etgan, otasi turk, onasi xorazmlik edi. Yoshligidan Imom Abu Hanifaga shogird tushadi. U birinchilardan bo'lib

hadislarni to'plab, kitob shakliga keltirgan olimlardan hisoblanadi. Shuningdek, uning "Tafsir" degan asar yozganligi haqida ba'zi ma'lumotlar bor. Lekin u asar bizning davrimizgacha yetib kelmagan. "Kitob az-Zuhd varraqoiq", "al-Birr vas sila" asarlarida hadislар orasida ba'zi Qur'on oyatlariga berilgan sharhlarni kuzatish mumkin. U o'z asarlarida oyatlar sharhiga oid hadislар bilan bir qatorda, sahobiy va tobe'iylarning ham sharhlari keltiriladi. Uning bu asaridan keyingi davr olimlari istefoda etishgan.

Agar dunyoda tafsir ilmidek sharaflи bir ilm yo'q, desak, sira ham mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Zero, tafsir ilmi orqali olamlar Rabbisining kalomi tushuniladi. Shu ilm orqali Parvardigor bilan suhbat quriladi. Bu ilm Allohning so'zlarini tadabbur qilishga yordam beradi. Tafsir ilmida kitob yozganlarning eng buyugi bo'lmish Imom Tabariy rahimahulloh shunday degan edilar: Qur'oni Karimni o'qib, qori bo'lib, lekin Uning ta'vilini bilmaydigan insondan ajablanaman. Bu ahvolda u qanday qilib o'qiyotgan narsasidan lazzat olarkin?! . Ha, Qur'on o'qishni bilib, tafsiridan, unda yashiringan xazinayu dafinalardan, undagi maknun sir-asrorlaridan bexabar bo'lgan inson juda ko'p lazzatdan bebahra inson bo'ladi.

Tafsir fani ilm tolibi va qolaversa barcha muslimonlarning eng birinchi o'rinda ahamiyat qaratishi lozim bo'lgan ilmlardan biridir. Zero, har qanday ilmning sharafi o'sha ilm orqali bilinadigan va o'rganiladigan narsaning sharafiga bog'liqdir. Shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, tafsir ilmi hamma ilmlardan muqaddam va hammasidan ustun ekanligiga amin bo'lamiz. Zero, Islom dinidagi barcha ilmlar, barcha fiqhiy va shar'iy bilimlar, botiniyu zohiriyl ilmlar, latoifu favoidlar, nafs tarbiyasi, odobu axloq, ijtimoiy xulqlar, muomalotu munosabatlar, aqoidu tavhid bilimlari, barcha-barchasi aslida mana shu Qur'oni Karimdan chiqib keladi, unga qaytadi va undan taraladi.

Kimki, tafsir bilimini o'rganish va Qur'oni Karimni tafsir qilishga bel bog'lagan ekan, bu ilm uni dindagi barcha ilmlarni egallashga yetaklaydi. U istasin, istamasin arab tilining fasohatu balog'atini chuqurroq fahmlashga majbur bo'ladi, arab tilisini mukammallashtirishga ehtiyoj sezadi va bu borada o'z ustida ishlaydi, fiqh va uning usullari bilan tanishadi, oyati karimalardan muhkamu mutashobeh, nosixu mansux, omu xos, mutlaqu muqayyad va hokazolarni o'rganadi. Chunki, bularning bari Qur'oni Karim o'z ichiga olgan narsalardandir.

Shunday qilib, mufassir to Qur'oni Karimni to'liq tafsir qilguncha boshqa necha-necha kitoblarga murojaat qiladi. Natijada bu jarayon so'ngida uning o'zi ham ilmda yetuklik darajasiga yetadi. Ilmda qadami sobit bo'lgan, Alloh taolo ilmda sobitqadam bo'lganlar esa ... (Oli Imron surasi: 7-oyat), deya sifatlagan zotlar qatoriga qo'shiladi. Ha, Tafsir ilmi insonni tom ma'noda olim qiladigan va dindagi boshqa barcha ilmlarni ham egallashiga turtki bo'ladigan ilmdir. Imom Ibn Abdul Barr rahimahullohning quyidagi so'zлari ham so'zimizning yorqin dalilidir. U kishi shunday deydilar: Ilmning avvali Allohning kalomini hifz qilib, Uning ma'nolarini tushunmoqdir. Allohning kitobini fahmlashga yordam beradigan boshqa barcha narsalar ham shu ilm qatorida vojibdir .

Shuning uchun ham tarix va kunimizga nazar solsak, Qur'oni Karimni tafsir qilgan olimlar boshqa ilmlarda ham peshqadam bo'lganliklarining guvohi bo'lamiz. Misol tariqasida, ma'sur yo'nalishdagi tafsir sohasida birinchilardan bo'lib mukammal kitob tasnif etgan zot, Mufassirlar peshvosi bo'lmish Imom Tabariy rahimahullohni oladigan bo'lsak,

muarixlar u kishini o‘z asrining biror kishisi teng kela olmaydigan ilm sohibi bo‘lganligini qayd etadilar. U zot Tafsir, hadis, fiqh, tarix va bir qancha ilmlarning bilimdoni edilar. Va ham hofizi Kalomulloh edilar. Qur‘on oyatlarining ma’nolarini daqiq joylarigacha tushungan, Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning sunnatlarini biluvchi, uning sog‘lom va zaifi, nosix va mansuxini ajratuvchi olim edilar. Bundan tashqari sahobalar va tobeinlardan va ulardan keyingi ulamolardan eshitilgan rivoyatlarni va ular o‘rtasidagi hukmlardagi muxoliflarni ham biluvchi kishi edilar. Abul-Abbos ibn Surayj rahimahulloh aytadilar: Muhammad ibni Jarir faqih olimdir . Imom Tabariy rahimahulloh tafsir ilmida Tafsir ilmining otasi degan nomga sazovor bo‘lganlar. Xuddi shuningdek tarix ilmida ham ushbu buyuk nomning egasidirlar.

Shuningdek, boshqa mufassir ulamolar ham shunday yetuk olimlar bo‘lishgan. Ta’bir joiz bo‘lsa, ularni Islom dining qomusiy olimlari deb atasak yanglishmagan bo‘lamiz. Masalan, Jassos nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Bakr Roziy bu kishi katta faqih olim bo‘lishlari bilan bir qatorda ahkomu-l-Qur‘on degan mashhur bir tafsir yozganlar.

Bizning serquyosh o‘lkamizda yaniy Yurtimizda bunday olimlar ko‘plab topish mumkin. Ulardan biri, Ahmad ibn Hafs Abu Hafs al-Kabir al-Buxoriy bo‘lib, Movaraunnahrda hanafiy mazhabining keng tarqalishida xizmat qilgan olimlarning avvalgilaridandir. U Abu Hanifaning shogirdi Imom Muhammaddan mumtoz shogirdlaridan hisoblanadi. Lekin bu olimning tafsiri bizgacha yetib kelmagan. Ulardan keyingi davrda mufassir sifatida shuhrat qozongan ad-Dorimiy, Imom Buxoriy, al-Hakim at-Termiziylarning tafsir borasidagi faoliyati muhim ahamiyatga ega. Ularning ilmiy meroslari ichida tafsir asarlari borligi va ular bizgacha yetib kelmagani haqida ma’lumotlar uchraydi. Bu allomalarning asarlaridagi tafsir ilmiga oid rivoyat va ma’lumotlarni tahlil etish, ularni tafsirshunoslikda tutgan o‘rnini ko‘rsatib beradi.

Abu Muhammad Abdulloh at-Tamimiyy ad-Dorimiy 798 yilda Samarqandda tavallud topgan muhaddis bo‘lib, tafsir ilmida ham o‘ziga xos o‘ziga xos o‘rin egallagan ulug‘ olimdir. Imom Dorimiy ilm izlab Xuroson, Shom, Misr va Hijoz shaharlariga yo‘l oladi. “as-Sihoh as-sitta” mualliflarida to‘rtasi – Imom Muslim, Abu Dovud, Termiziy va Imom Nasaiylar bu buyuk olimdan hadis ilmini o‘rganganlar. Imom Dorimiy 266/880 yilda Samarqandda vafot etgan va akasining qabri oldiga dafn qilingan. Imomning “Sunan ad-Dorimiy” nomli asari Abdulaziz al-Xolidiy tahriri ostida Bayrutda 1996 yilda ikki jidda chop etildi. Kitobning ikkinchi jiddida “Fazoilul Qur‘on” nomli bob bo‘lib, u 35 fasldan, ya’ni kichik boblardan tashkil topgan. Unda Qur‘on oyatlari tafsiri keltirilmagan bo‘lmasa ham tafsir fazilatlari haqida qilingan rivoyatlarga alohida e’tibor berilgan. Masalan, “qintor” so‘zining manosi bo‘yicha bir necha rivoyatlar keltiradi. U rivoyatlarni Muhammad (s.a.v.) yoki sahobiylardan sanadlar bilan keltiradi.

Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 194 hijriyda Buxoro shahrida tavallud topgan<sup>15</sup>. Olimni imomlar imomi va muhaddislar peshvosi deb tilga olish odat tusiga kirib qolgan. Buxoriy Xuroson, Iroq, Hijoz, Misr va Shom davlatlariga hadis ilmini o‘rganish va o‘rgatish uchun umr bo‘yi safar qildilar. U kishi 600 ming hadisni yod bilgan. Shu asosida “Al-Jome as-Sahih” kitobini ta’lif etgan. Bu asar islam olamida mashhur asar bo‘lib, u “Sihoh as-sitta” kitoblarining ichida birinchi o‘rinda turadi.

Bundan tashqari, “Al-Jome’ al-Kabir”, “Al-Musnad al-kabir”, “at-Tarix” kabi 20 dan ortiq kitoblarning muallifi hamdir. Muhim jihatni Buxoriy “At-Tafsir al-kabir” degan asar ham yozgan lekin bu asar bizgacha yetib kelmagan. Buxoriy ham o’z hadis to’plamida, ya’ni “Al-Jome’ al-sahih” asarining uchinchi bobida qur’on tafsiriga oid mingdan ortiq hadislarni keltirgan va qur’onning qisqacha tafsir qilib ham ketgan<sup>16</sup>. Uchinchi jildning 149-sahifasidan “Qur’on tafsiri kitobi” degan bobi boshlanib va har bir mavzu alohida qilingan. Unda Qur’ondagi 358 ta oyatga sharh berilgan, shuningdek sahobiy va tobe’iyrlarning Qur’onga sharhlari ham keltirilgan. E’tiborli tomoni oyatlarning sababi nuzuliga ham alohida e’tibor berilgan. Buxoriy mufassirlar singari rivoyat qilinayotgan hadisni sanadini zikr etishni tark qilgan. Qadimiylar navqiron Termiz ham yurtimizga mufassirlarni yesishtirib bergan. Ulardan biri Hakim Termiziyyidir. Uning tavalludi haqida Tarix fanlari nomzodi Ibrohim Usmonov turlicha qarashlar va ixtiloflarni o’rganib chiqib shunday yozadi: “Barcha fikrlardan kelib chiqib, biz ham ba’zi tadqiqotchilar kabi Hakim Termiziyning tavalludi 205/820 yil va vafoti 320/920 yil degan xulosaga keldik.” U ham mohir mufassirlardan sanaladi. Uning asarlari orasida ba’zi oyatlarga berilgan sharhlarni ko’rish mumkin. Jumladan, uning “Tahsil nazoir al-Qur’on” asarida Quro’ni karimdagagi “hidoyat”, “kufr”, “shirk”, “hikmat”, “islom”, “iymon” kabi 80 dan ortiq so’zga sharh berilgan.

Juyushiy o’z tadqiqotida Hakim Termiziyning tafsiridagi uslubni uch yo’nalishda namoyon bo’lishini ta’kidlaydi: 1. Oyatlarni fahmlashda zohiriyo yo’nalish bo’lib, bu barcha mufassirlarning tafsiridagi uslubidir. 2. Tasavvufiy yo’nalish, ya’ni Qur’onning zohiriyo va botiniy ma’nolari bor hisoblovchi yo’nalish. 3. Arab harflaridan ishora olish. Ya’ni u Allohnning ismi va sifatlari ilmnning asli harflardir deb qarash.

Abu Iso Muhammad ibn Iso Termizi 824-yilda Termiz shahrida tavallud topgan. Termiziyy hadis to’plash maqsadida Xuroson, Iroq va Hijochning juda ko’p shaharlarini kezadi. Ishoq ibn Muso, Muhammad ibn Bashshor, Ali ibn Hajar, Sufyon ibn Vaki’, Imom Buxoriy kabi o’z davrining yetuk olimlaridan tahsil oladi. Ko’p yillik ijod mahsuli sifatida “Kitob al-Asmo val-Kuno”, “Ash-Shamoil an-nabaviyya”, “At-Tavorix”, “Al-Ilal” va “Kitob az-Zuhd” kitoblarini ta’lif etgan. Buyuk olim 892-yilda Termizda vafot etdi.

Termiziyning ham o’zining “Al-Jome’ as-sahih” yoki “As-Sunan” deb nomlangan asarida “Fazoilul Qur’on”, “Kitob al-Qiroat”, “Kitob tafsir al-Qur’on” kabi boblarini keltirib unda tafsiriga aloqador rivoyatlarni bayon qilgan. Ayniqsa, asarning “Kitob tafsir al-Qur’on” bobida 114 sura fazilatlari haqida batatsil ma’lumot berilgan. Mana shu asar “O’z rayi bilan tafsir qiluvchi kishilar haqida hadislar” bobi bilan boshlanadi. Keyin suralarning fazilati haqida hadislar keltiriladi. E’tiborli jihatni shundaki asarda “Naba”, “Noziyat”, “Humaza”, “Odiyot”, “Fil”, “Asr” kabi suralar fazilati haqida hadislar berilmagan.

IX asrgacha mufassir sifatida tanilgan olimlar faoliyatida Qur’on to’liq sharhlanmagan, balki undagi ba’zi oyatlarga sharh berilgan deyish mumkin. Shuningdek, boshqa musulmon mamlakatlar kabi bizning yurtimizda ham rivoyat asosida sharhlandi, tafsiriga oid rivoyatlar hadis to’plamlarida alohida bob sifatida qayt etildi. Ray-ijtihad bilan sharhlashga e’tibor qaratilmadi. Bu ilmni hadis to’plamlarida alohida bob sifatida ajratib zikr etish keyinchalik, alohida ilm bo’lib shakllanishiga poydevor bo’ldi.

**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Usmonov I. Navodir al-usul hikmatlari. –T.: Fan, 2009. –B. 57
2. Abdullaev A. Abul Lays Samarqandiyning Movarounnahr tafsirshunosligida tutgan o'rni. Tar.fan.nom. dissert. –T.: 2007. –B. 32.
3. Abdullaev A. Abul Lays Samarqandiyning Movarounnahr tafsirshunosligida tutgan o'rni. Tar.fan.nom. dissert. –T.: 2007. –B. 34
4. Obidov R. O'rta Osiyo olimlarining tafsir sohasidagi xizmatlari. –T.: Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi, 2009. –B. 9
5. Usmonov I. Navodir al-usul hikmatlari. –T.: Fan, 2009. –B. 57.